# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH VAZIRI

**A.J. Ramatovga, J.A. Qo‘chqorovga, J.A. Xodjayevga, Z.B. Maxkamovaga**

**Adliya vazirligi** (Tashkulovga) – *yig‘in*,
**Iqtisodiyot va moliya vazirligi** (Norqulovga),
**Soliq qo‘mitasi** (Kudbiyevga)

**vazirlik va idoralarga** *(ro‘yxat bo‘yicha)*

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga**

**Bosh prokuraturaga** – *ma’lumot uchun*

**1.** O‘zbekiston Respublikasining **“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”** 2025-yil 21-avgustdagi O‘RQ–1083-son Qonuni **ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin**.

**2.** O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 21-avgustdagi O‘RQ–1083-son Qonunini amalga oshirish bo‘yicha **tadbirlar rejasi** ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3.** Qonunda va Tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar o‘z muddatlarida va sifatli ijro etilishini ta’minlash yuzasidan ta’sirchan choralar ko‘rilsin.

**4.** O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O‘zbekiston Milliy axborot agentligiga Qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etilsin.

M. Yakubovga, I. Tangriyevga, M. Jumaniyazovga,
T. Rapikovga – **ijrosini ta’minlash uchun**

Sh. Galtemirovga – **nazorat uchun**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI ★ UMUMIY BO‘LIM 2

**A. Aripov**

2025-yil “25”- avgust
№ 12/1-2880

Vazirlar Mahkamasining
2025-yil 25-avgustdagi 12/1-2880-son topshirig'iga
ilova

**O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" 2025-yil 21-avgustdagi O'RQ–1083-son Qonunini amalga oshirish bo'yicha**
**TADBIRLAR REJASI**

| T/r | Chora-tadbir nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Vazirlik va idoralardan | Vazirlar Mahkamasidan |
| **I. Amaldagi qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish va yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish** | | | | | |
| 1. | Normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu Qonunga muvofiqligi yuzasidan qayta ko'rib chiqish *(12-modda)*. | 1. Normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish.<br>2. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish hamda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish.<br>3. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2025-yil 5-sentabr<br>2025-yil 1-oktabr<br>2025-yil 25-oktabr | Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari | M. Yakubov, I. Tangriyev, Sh. Doniyorov, A. Madaminov |
| 2. | Vazirlik va idoralar tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni Qonunga muvofiqlashtirish *(12-modda)*. | 1. Tegishli idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish.<br>2. Zarurat bo'lganda, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni Qonunga muvofiqlashtirgan holda qayta ishlab chiqish yoki bekor qilish. | 2025-yil 5-sentabr<br>2025-yil 5-oktabr | Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, manfaatdor vazirlik va idoralar | M. Yakubov, I. Tangriyev, Sh. Doniyorov, A. Madaminov |
| **II. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar** | | | | | |
| 3. | Qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyati yuzasidan aholi o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borish *(11-modda)*. | 1. Reja-grafik ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>2. Reja-grafikni amalga oshirish. | 2025-yil 30-avgust<br>Reja- | Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, | M. Yakubov, I. Tangriyev, Sh. Doniyorov, U. Kuchchiyev |

| T/r | Chora-tadbir nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | **Vazirlik va idoralardan** | **Vazirlar Mahkamasidan** |
| | | | grafikka muvofiq | manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari | |
| 4. | Qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ma'lumotlarni e'lon qilish *(11-modda)*. | 1. Ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlarda Qonunning mazmun-mohiyatini yoritishga qaratilgan ma'lumotlarni e'lon qilish reja-jadvalini ishlab chiqish.<br>2. Reja-jadval asosida ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni yoritib borish. | 2025-yil 30-avgust<br><br>Reja-jadvalga muvofiq | Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi | M. Yakubov, I. Tangriyev, Sh. Doniyorov, U. Kuchchiyev |